



ENGLISH-UZBEK KETMA-KET TARJIMADA KOGNITIV JARAYONLAR VA MUAMMOLAR TAHLILI

Oqboyeva Shaxnoza Abdimalik qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili yo'nalishi talabasi
4-bosqich talabasi*

oqboyevashaxnoza098@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqolada English-Uzbek ketma-ket tarjimada (consecutive interpreting) yuzaga keladigan kognitiv jarayonlar idrok, diqqat, ishchi xotira va ma'no qayta ishlash mexanizmlari hamda ushbu jarayonlarni qiyinlashtiradigan asosiy omillar: tez nutq, uzun segmentlar, raqamlar, terminlar, sintaktik-leksik nomuvofiqliklar, pragmatik-madaniy to'siqlar va stress omillari tadqiq etiladi. Shuningdek, kognitiv yuklamani kamaytirish uchun qo'llaniladigan note-taking (eslatma olish), segmentatsiya, parafraz, monitoring, self-repair va kompensatsion strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarjimonlik ta'limida kognitiv boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: ketma-ket tarjima; kognitiv yuklama; ishchi xotira; note-taking; segmentatsiya; parafraz; pragmatik moslik; English-Uzbek tarjima.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi professional tarjimonlik talab keskin oshib bormoqda. Xalqaro konferensiyalar, biznes muzokaralar, diplomatik uchrashuvlar va ilmiy seminarlar kabi muhim vaziyatlarda ketma-ket tarjimonlik (consecutive interpreting) muloqotning uzluksizligini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Biroq ketma-ket tarjimani tashqi tomondan "tinglash va aytish" kabi oddiy jarayon sifatida ko'rish noto'g'ri bo'lar edi aslida u tarjimondan bir vaqtning o'zida idrok, diqqatni boshqarish, ishchi xotirada axborotni ushlab turish, ma'no modelini qurish va ikki til tizimi orasida tezkor tanlovlar qilishni talab qiladigan murakkab kognitiv faoliyatdir.

English-Uzbek yo'nalishida ushbu murakkablik yanada ortadi, chunki ikki tilning sintaktik tipologiyasi (SVO va SOV), uslubiy me'yorlari, kollokatsion tizimi va pragmatik-madaniy farqlari ketma-ket tarjimada qo'shimcha kognitiv yuklama yaratadi. O'zbekistonda tarjimon tayyorlash amaliyotida ko'pincha grammatik va leksik aspektlarga ko'proq e'tibor qaratilib, kognitiv boshqaruv strategiyalarini note-taking, segmentatsiya, monitoring va kompensatsiyani tizimli o'rgatish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Shu bois mazkur maqolada English-Uzbek ketma-ket tarjimada kognitiv jarayonlar va muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularni kamaytirish strategiyalarini asoslash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko'zlangan.





ASOSIY QISM

1. Ketma-ket tarjimada kognitiv jarayonlar

Ketma-ket tarjimada kognitiv jarayonlarni to'rt yirik blokda ko'rib chiqish mumkin: idrok (perception), diqqat (attention), ishchi xotira (working memory) va ma'no qayta ishlash (meaning processing) mexanizmlari. Bu bloklar mustaqil emas, ular bir-birini to'ldiradi va umumiy kognitiv tizim sifatida ishlaydi.

Idrok ketma-ket tarjimaning kirish darvozasi bo'lib, manba nutqni eshitish va fonetik oqimdan ma'noli birliklarni ajratib olishni anglatadi. Ingliz tili kabi fonetik jihatdan reduksiya va bog'lanish kuchli bo'lgan tillarda idrok jarayoni tarjimon uchun alohida sinov bo'ladi: tez nutqda tovushlar qisqarishi, so'zlar bog'lanib ketishi va urg'u tez o'zgarishi tarjimondan "tushunib eshitish" (active listening) rejimida ishlashni talab qiladi [1].


Diqqat ketma-ket tarjimada faqat "e'tibor berish" emas, balki tanlab e'tibor berish, e'tiborni bir vazifadan ikkinchisiga o'tkazish va chalg'ituvchi signallarni bostirish kabi ijro funksiyalarini o'z ichiga oladi. Diqqat resursi cheklangan: tarjimon bir paytda hamma narsaga bir xil e'tibor bera olmaydi. Shuning uchun professional tarjimon nutqning tayanch nuqtalarini — asosiy tezis, sabab–oqibat bog'lanishlari, raqamlar, terminlar va notiqning pragmatik niyatini tez ajratadi [2].

Ishchi xotira ketma-ket tarjimada eng ko'p yuklanadigan tizim bo'lib, u axborotni qisqa muddat ushlab turish va uni faol qayta ishlashni ta'minlaydi. Ishchi xotira sig'imi cheklangan bo'lgani uchun segment uzaygan sari, nutq tezlashgan sari, termin va raqamlar ko'paygan sari xotira "to'lib qolishi" mumkin. Bu holatda tushirib qoldirish (omission), aralashish (misattribution), ketma-ketlik buzilishi va raqam/terminlarni noto'g'ri qayta aytish xatolari ko'payadi [3].

Ma'no qayta ishlash mexanizmlari esa dekodlash, inferensiya, disambiguatsiya, konseptual xarita qurish, reformatlash va re-kodlash kabi bir necha kognitiv amallarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida ichma-ich strukturalarga boy gaplar o'zbek tilida bo'laklash, fe'llashtirish va parafraz orqali qayta ifodalashni talab qiladi. Shuning uchun ma'no qayta ishlash faqat semantika emas, balki pragmatik moslashtirishdir [4].

1-jadval. Ketma-ket tarjima jarayonining kognitiv bloklari

Kognitiv blok	Asosiy vazifasi	Tarjimaga ta'siri
Idrok (Perception)	Nutq signalini qabul qilish, fonetik tahlil	Noto'g'ri eshitish semantik xatoga olib keladi
Diqqat (Attention)	Axborotni saralash, resursni yo'naltirish	Taqsimot noto'g'ri bo'lsa mantiqiy bog'lanishlar yo'qoladi
Ishchi xotira (WM)	Axborotni vaqtincha saqlash va qayta ishlash	To'lib qolsa tushirib qoldirish va aralashish ko'payadi





Ma'no qayta ishlash	Dekodlash, inferensiya, reformatlash	Pragmatik signallar yo'qolishi mumkin
---------------------	--------------------------------------	---------------------------------------

2. Asosiy kognitiv qiyinchiliklar

English–Uzbek ketma-ket tarjimada kognitiv yuklamani kuchaytiradigan bir nechta asosiy omil mavjud bo'lib, ularni lingvistik, prosodik va pragmatik toifalar bo'yicha tasnif qilish mumkin.

2.1. Tez nutq va uzun segmentlar

Tez nutq (speech rate) diqqat va ishchi xotiraga ikki yo'nalishda bosim beradi: idrok bosimi va qayta ishlash bosimi. Tez nutqda tarjimon so'zlarni aniq ajratib eshitishga ko'proq resurs sarflaydi, natijada mazmunni tahlil qilishga resurs kamayadi. Bundan tashqari, tez oqimda pragmatik signallar — might, could, however, therefore kabi birliklar — ko'zdan qochib, tarjimada mantiqiy bog'lanishlar va modallik yo'qoladi [5].

Uzun segmentlar ishchi xotiraning sig'imini keskin oshiradi. Tarjimon nafaqat mazmunni eslab turadi, balki kelajakdagi ifodani ham oldindan rejalashtirib boradi. Bu holat ayniqsa English–Uzbek yo'nalishida ko'proq seziladi: inglizcha uzun gaplar ko'pincha ichma-ich konstruksiyalar bilan boy bo'lib, o'zbek tilida ularni qayta tartiblash zarur bo'ladi. Natijadar tafsilotlar tushib qoladi, dalillar aralashadi va mantiqiy bog'lanishlar uziladi.

2.2. Raqamlar va terminlar

Raqamlar ketma-ket tarjimada "kognitiv zaif nuqta" sifatida qaraladi, chunki ular ko'pincha kontekstga tayangan holda tiklanmaydi: raqamlarni aniq eshitish va aniq qayta aytish zarur. Tez nutqda raqamlar fonetik jihatdan tez o'tib ketadi, bir xil raqamni eshitganda miya uni mantiqiy g'oya sifatida emas, ko'proq "aniq shakl" sifatida saqlashga harakat qiladi. Shu sababli almashtirish (15 o'rniga 50), kattalik darajasini adashtirish (thousand/million) va tartib xatolari tez-tez uchraydi.

Terminlar bilan ishlashda tarjimonda ikki bosqichli muammo tug'iladi: avvalo termini tez tanib olish va uni oddiy so'zdan ajratish; keyin esa maqsad tilidagi mos ekvivalentni tez topish. Termin topolmasa, tarjimon uch xil yo'lni tanlaydi: transliteratsiya, funksional izoh, yoki umumiyroq so'z bilan almashtirish. Bu strategiyalarning har biri u yoki bu jihatdan tarjima sifatiga ta'sir qiladi.

2.3. Sintaktik va leksik-semantik qiyinchiliklar

English–Uzbek yo'nalishida sintaktik qiyinchiliklar, avvalo, ikki tilning so'z tartibi o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadi. Ingliz tili qat'iy SVO tartibiga tayanadi, o'zbek tili esa asosan SOV tartibini afzal ko'radi: fe'l ko'pincha gap oxirida keladi. Bundan tashqari, ingliz tilining nominalizatsiyalarga boy uslubi o'zbekchada qiyinchilik tug'diradi. "Implementation, assessment, development" kabi otlar o'zbek tilida fe'li shakllar bilan tabiiy ifodalanishi uchun "joriy etish, baholash, rivojlantirish" kabi transformatsiya talab qilinadi [6].

Leksik-semantik qiyinchiliklar orasida ko'pma'nolilik (polysemy) alohida xavf tug'diradi. Issue, case, charge, power, approach kabi so'zlar kontekstga qarab keskin





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'zgaradigan ma'noga ega. Ketma-ket tarjimada tarjimon ko'pma'nolilikni "lug'atdan qidirishga" vaqt topa olmaydi: u kontekstni tez baholab, qaysi ma'no to'g'ri ekanini real vaqt rejimida tanlashi kerak. Agar kontekst noto'g'ri o'qilsa, keyingi jumlar ham "xato poydevor" ustiga quriladi.

2.4. Pragmatik va madaniy to'siqlar

English–Uzbek ketma-ket tarjimada tarjima sifati ko'pincha notiqning fikrini qanday aytayotgani, auditoriya bilan qanday munosabat o'rnatayotgani va nutqning yashirin qatlamlari qanday ishlayotganini to'g'ri anglab, o'zbek tilida qayta ifodalash bilan belgilanadi. Ingliz tilidagi muloyimlik strategiyalari — "Could you...", "We would suggest...", "It might be better to..." kabi shakllar — ko'pincha muloyim iltimos yoki diplomatik bosim vazifasini bajaradi. Tarjimon bu farqni hisobga olmasa, iltimos buyruqqa aylanib ketadi yoki tavsiya "majburiy talab" sifatida jaranglaydi [7].

Madaniy realliyalar (community college, White Paper, NHS va hokazolar) ham ketma-ket tarjimada keng uchraydigan to'siqdir. Bunday tushunchalarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha yetarli bo'lmaydi; funksional izoh zarur. Vaqt cheklangani sababli izohlar juda qisqa, lekin ma'no ochuvchi bo'lishi kerak: "ikki yillik kollej turi", "rasmiy konseptual hujjat", "milliy sog'liqni saqlash tizimi" kabi minimal izohlar auditoriya tushunishini oshiradi.


2-jadval. Kognitiv yuklama omillari va tarjimadagi natijalari

Omil	Kognitiv muammo	Tarjimadagi natijasi
Tez nutq	Idrok va qayta ishlashga vaqt yetmasligi	Pragmatik markerlar va mantiqiy bog'lanishlar yo'qoladi
Uzun segmentlar	Ishchi xotira sig'imining to'lib qolishi	Tushirib qoldirish, aralashish, ketma-ketlik buzilishi
Raqaamlar	Aniq shaklni saqlash qiyinligi	Almashtirish, kattalik darajasi xatolari
Terminlar	Leksik qidiruv yuklamasi	Nutq tutilishi, noaniq yoki noto'g'ri ekvivalent
Pragmatik signallar	Modallik va muloyimlik markerlarini yo'qotish	Kommunikativ niyat buzilishi

3. Kognitiv yuklamani kamaytirish strategiyalari

3.1. Note-taking (eslatma olish)

Ketma-ket tarjimada eslatma olishning asosiy maqsadi so'zlarni ko'chirib yozish emas, balki nutqning mazmuniy skeletini qayd etishdir. Note-taking ishchi xotiradagi ma'lumotni tashqi "xotira tayanchi"ga aylantiradi: raqam, termin, ism, sabab–oqibat va qarama-qarshilik kabi elementlar yozma belgilarga ko'chiriladi. Shu tariqa tarjimon miyada





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

saqlanadigan yukni kamaytiradi va ifodalash bosqichida mazmuni tiklashni osonlashtiradi [8].

Note-takingda nimani yozish kerak degan savol muhim, chunki hamma narsani yozishga urinish diqqatni chalg'itadi. Majburiy elementlar: asosiy g'oya va subg'oyalar; raqamlar, sanalar, statistik ko'rsatkichlar; terminlar va maxsus nomlar; mantiqiy bog'lovchilar (sabab-oqibat, qarama-qarshi, taqqoslash); inkor va cheklovlar; pragmatik signallar (taklif qiladi, ogohlantiradi, tanqid qiladi). Texnik jihatdan qisqartirish, simvollar (\rightarrow sabab-oqibat, $\uparrow\downarrow$ oshish-kamayish, \neq farq) va vertikal yozuv tizimidan foydalanish tezlikni oshiradi.

3.2. Segmentatsiya strategiyasi

Segmentatsiya — manba nutqni mazmuniy bo'laklarga ajratish va tarjimini shu bo'laklarga mos qilib qayta ifodalash strategiyasidir. Kognitiv nuqtayi nazardan segmentatsiya ishchi xotira yuklamasini kamaytiradi: tarjimon butun segmentni "bir bo'lak" sifatida ushlab o'rninga, uni kichik "chunk"larga bo'ladi va har chunkni alohida ma'no birligi sifatida qayta ishlaydi. English-Uzbek yo'nalishida segmentatsiya ayniqsa muhim, chunki ingliz tilida murakkab qo'shma gaplar va parentetik kiritmalar ko'p uchraydi, o'zbek tilida esa tabiiy ifoda ko'pincha sodda yoki ketma-ket gaplar orqali beriladi.

3.3. Parafraz va qayta tuzish

Parafraz ketma-ket tarjimada sintaktik ham, leksik-semantik muammolarni yengishda universal strategiya bo'lib xizmat qiladi. Parafraz — ma'noni saqlagan holda uni boshqa, ko'proq tabiiy va xavfsiz ifoda bilan qayta bayon qilishdir. Ko'pma'noli so'zning aniq ekvivalentini tanlash qiyin bo'lsa, tarjimon umumiyroq, lekin kontekstga mos variantni beradi; termin topolmasa, qisqa funksional izoh beradi; idiomani so'zma-so'z emas, mazmuni bilan ifodalaydi; murakkab gapni bo'laklab, "boshqacha aytganda" orqali qayta quradi [9].

3.4. Monitoring va self-repair

Monitoring tarjimonning o'z faoliyatini real vaqt rejimida ichki nazorat qilishi, tinglash bosqichida tushunishni tekshirishi va ifodalash bosqichida chiqayotgan nutqning mazmuniy hamda uslubiy mosligini kuzatib borishidir. Monitoring kuchli bo'lsa, tarjimon xato qilganini tez sezadi va self-repair orqali tuzatadi; monitoring sust bo'lsa, xato "o'tib ketadi" va auditoriyada noto'g'ri ma'no mustahkamlanib qoladi.

Self-repair — o'z nutqida xato yoki noaniqlikni sezgach, uni auditoriyani chalg'itmasdan, tabiiy va qisqa tarzda tuzatishdir. Self-repair tarjimonning zaifligi emas; aksincha, bu uning monitoringi ishlayotganining belgisi. O'zbekchada self-repair uchun qisqa qoliplar mavjud: "aniqrog'i...", "to'g'rirog'i...", "ya'ni...", "boshqacha aytganda..." kabilar. Muhimi, tuzatish auditoriyaga "keskin uzilish" bermasligi kerak.

3.5. Umumlashtirish va kompensatsion strategiyalar

Resurs yetishmovchiligi bo'lgan paytda professional yondashuv — barcha detallarni so'zma-so'z aytishga urinish emas, balki umumlashtirish (summarizing) va siqish



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

(compression) orqali asosiy mazmuni saqlab qolishdir. Auditoriya uchun eng muhim narsa — notiqning asosiy tezisi, uning dalillari va xulosasi. Ikkinchi darajali tafsilotlar ba'zan yo'qolishi mumkin, ammo mantiqiy skelet saqlansa, kommunikativ maqsad buzilmaydi. Shuning uchun tarjimon "signal" va "noise"ni ajratadi: muhim informatsion birliklarni saqlaydi, ortiqcha takrorlar va uzun izohlarni qisqartiradi [10].

3-jadval. Strategiyalar va ularning kognitiv samarasi

Strategiya	Kognitiv mexanizm	Tarjima sifatiga ta'siri
Note-taking	Ishchi xotirani tashqi tayanch bilan yengillataish	Raqam, termin, mantiqiy bog'lanish xatolari kamayadi
Segmentatsiya	Nutqni boshqariladigan bo'laklarga ajratish	Tushirib qoldirish kamayadi, ravonlik oshadi
Parafraz	Xavfsiz reformulyatsiya	Semantik xatolar va kollokatsion nomuvofiqlik kamayadi
Monitoring	Real vaqtda ichki nazorat	Xato erta aniqlanadi, tuzatish imkoni oshadi
Self-repair	Minimal zarar bilan tuzatish	Auditoriya ishonchi saqlanadi
Umumlashtirish	Asosiy yadro/skeletni saqlash	Resurs cheklangan holatda ham muloqot davom etadi

4. Metodik tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida tarjimonlik ta'limi uchun quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, ketma-ket tarjimonda diqqatni boshqarish ko'nikmasini shakllantirish uchun mashg'ulotlarda "tayanch axborotni ajratish" amaliyotini muntazam yo'lga qo'yish zarur. Diskurs markerlar (however, therefore, in addition) uchun o'zbekcha barqaror ekvivalentlarni avtomatlashtirish diqqatning strategik ishlashini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, note-taking tizimi shaxsiylashtirilgan, lekin metodik jihatdan standart tamoyillarga tayangan holda o'rgatilishi kerak. Raqamlar bilan ishlash alohida modul sifatida kiritilib, sana, foiz, milliard/million va o'nli kasrlarni aniq eshitish hamda aytilish ko'nikmalari alohida mustahkamlanishi zarur.

Uchinchidan, pragmatik moslikni ta'minlash uchun hedging va yumshatish birliklari (might/could, would suggest, it seems) uchun o'zbekcha barqaror ifodalar repertuari tuzilib, real dialog va muzokara matnlari asosida avtomatlashtirilishi kerak: might/could → "ehtimol/bo'lishi mumkin", would suggest → "taklif etamiz", it seems → "ko'rinadi".





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

To'rtinchidan, stress omillarini kamaytirish bo'yicha simulyatsiya mashqlari — tez nutq, shovqin, vaqt cheklovi, notanish mavzu sharoitida tarjima — tarjimon tayyorlash jarayoniga integratsiya qilinishi tavsiya etiladi. Har mashqdan so'ng refleksiya va xatolar tahlili amalga oshirilishi kerak. Tarjimonlarda self-repair ko'nikmasi shakllantirilib, "aniqrog'i", "to'g'rirog'i", "ya'ni" kabi qisqa tuzatish formulalari tabiiy qo'llash avtomatlashtirilsa, xatolarni minimal zarar bilan bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Beshinchidan, tarjima sifatini baholashda faqat grammatik to'g'rilik emas, balki mazmuniy aniqlik, ravonlik, pragmatik moslik va terminologik aniqlikni qamrab olgan ko'p o'lchovli rubrika qo'llash maqsadga muvofiq. Baholash mezonlari aniq deskriptorlar bilan berilsa, xolislik ortadi va tarjimon o'z kamchiliklarini maqsadli ravishda tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

XULOSA

Mazkur maqolada English–Uzbek ketma-ket tarjimada yuzaga keladigan kognitiv jarayonlar va muammolar kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ketma-ket tarjima jarayoni nafaqat lingvistik konversiya, balki idrok, diqqat, ishchi xotira, ma'no qayta ishlash, monitoring va nutq ishlab chiqarish kabi ko'p bosqichli kognitiv mexanizmlar bilan boshqariladigan murakkab faoliyat ekanini ko'rsatdi.

Tez nutq, uzun segmentlar, raqamlar va terminlarning ko'pligi ishchi xotira sig'imini tezda to'ldiradi; natijada tushirib qoldirish, ma'no buzilishi, raqam/termin xatolari, mantiqiy bog'lanishlarning uzilishi va uslubiy siljishlar ko'payadi. English–Uzbek yo'nalishidagi sintaktik tipologiya farqi (SVO–SOV), leksik-semantik tizimlarning mos kelmasligi va pragmatik-madaniy me'yorlarning turlicha bo'lishi kognitiv yuklamani yanada kuchaytiradi.

Note-taking va segmentatsiya strategiyalari ishchi xotira yuklamasini kamaytirishda eng samarali tayanch mexanizmlar ekanligi aniqlandi. Parafraz, monitoring, self-repair va umumlashtirish kabi kompensatsion strategiyalar esa resurslar cheklangan vaziyatlarda tarjima sifatini barqarorlashtiruvchi vosita ekanligi tasdiqlandi. Ushbu strategiyalarni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan trening modeli va amaliy mashqlar tizimi English–Uzbek ketma-ket tarjimada kognitiv muammolarni sezilarli kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tarjimon tayyorlash kurslari, oliy ta'lim muassasalaridagi tarjimonlik fanlari hamda amaliy tarjimonlar uchun metodik qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Kelgusida turli darajadagi tarjimonlarda ishchi xotira yuklamasining farqi, note-taking tizimlarining samaradorligini solishtirish va stress hamda pragmatik xatolar o'rtasidagi bog'liqlikni eksperimental tekshirish kabi yo'nalishlar alohida tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pöchhacker, F. *Introducing Interpreting Studies*. 2nd ed. London: Routledge, 2016.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. Gillies, A. Note-taking for Consecutive Interpreting: A Short Course. 2nd ed. London: Routledge, 2016.
3. Baddeley, A., Eysenck, M. W., Anderson, M. C. Memory. 3rd ed. London: Routledge, 2020.
4. Setton, R., Dawrant, A. Conference Interpreting: A Complete Course. Amsterdam: John Benjamins, 2016.
5. Gile, D. Testing the Effort Models' Tightrope Hypothesis in Simultaneous Interpreting. HERMES, 2015.
6. Baker, M., Saldanha, G. (Eds.). Routledge Encyclopedia of Translation Studies. 3rd ed. London: Routledge, 2020.
7. Birner, B. J. Introduction to Pragmatics. 2nd ed. Wiley-Blackwell, 2021.
8. He, X. Note-taking for Consecutive Interpreting: A Cognitive Load Perspective. Singapore: Springer, 2021.
9. Pym, A. Exploring Translation Theories. 3rd ed. London: Routledge, 2023.
10. Seeber, K. G. (Ed.). The Cambridge Handbook of Conference Interpreting. Cambridge University Press, 2023.
11. Musaev, Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan, 2005.
12. Rahimov, G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zME, 2016.

